



ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2020-yil, 4-son (122) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Filologiya, Pedagogika, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor
H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

- | | |
|---------------------------|--|
| S. S. G‘ULOMOV | - O‘zFA akademigi |
| A. SAGDULLAEV | - O‘zFA akademigi |
| T. MIRZAYEV | - O‘zFA akademigi |
| SH. A. HASANOV | - fil.f.d., professor (SamDU) |
| S. A. KARIMOV | - fil.f.d., professor (SamDU) |
| M. MUXIDDINOV | - fil.f.d., professor (SamDU) |
| N. SH. SHODIEV | - ped.f.d., professor (SamDU) |
| M. M. MAXMUDOVA | - ped.f.d., professor (SamDU) |
| S. K. KARIMOV | - fals.f.d., professor (SamDU) |
| J. YA. YAXSHILIKOV | - fals.f.d., professor (SamDU) |
| N. U. ARABOV | - i.f.d., professor (SamDU) |
| B. E. ERGASHEV | - t.f.d., professor (SamDU) |
| B. S. G‘OYIBOV | - t.f.d., professor (SamDU) |
| TAMIR KLEIN | - Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil) |
| NAZIF SHAHRANY | - Indiana universiteti professori (AQSh) |
| HIROAKI HUZIIE | - Osaka universiteti professori (Yaponiya) |
| KIM SUNGHAE | - Daeju universiteti professori (Koreya) |
| BYLAPPA MANJUNATH | - Don Bosko boshqaruv maktabi professori (Hindiston) |

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

FILOLOGIYA / PHILOLOGY

Sultonmurod Olim	Ishq talqini: “Mahbub ul-qulub” va “Lison ut-tayr” majozdan maqsad – haqiqat	4
Малиновский Е.А., Ткебучава И.Г.	О новом фразеологическом словаре современного русского языка	8
Hasanov Sh. A.	Kinoqissalar poetikasiga bir nazar	11
Xatamov Z., Sanaqulov U.	Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari o‘rganilishi va unga berilgan baho	14
Sulaymonov I. I.	Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va esse imkoniyatlari	17
Aslanova H. A.	Ijodiy mutanosiblik va Gadoiy ijodi	22
Шералиева III. А.	Проблемы эквивалентности религиозных фразеологизмов в английском, русском и узбекском языках	25
Sulaymonova D. A.	Murojaat lingvistik tadqiqotlar ob’ekti sifatida	28
Timirov A. M.	Omonim so‘zlarning tarjimadagi roli	31
Саттарова С. О., Туйчиева Д. Р.	Основные аспекты изучения грамматических особенностей предложения	34
Xudoyorova S. T.	Frazeologik va paremiologik birliklar semantikasida tarixiy ijtimoiy voqealar (ingliz va o‘zbek tillari misolida)	37
Ташбекова Д. И.	О взаимосвязях и взаимоотношении словообразования и лексики в русском языке	40
Soliev A.	Tarixiy drama va xarakter	43
Rahimov M. R.	Nemis tili ilova konstruksiyasining ayrim strukturaviy xususiyatlari	46
Jo’raxolova B. Q.	O‘zbek va nemis tillarida «Ayol» va «Erkak» tushunchalarining gender farqlari, stereotiplari o‘zbek va nemis xalq maqollari misolida	50
Mirsanov B. M.	Nemis tilida hayvon va uning a’zosi nomi orqali voqyelangan qo’shma terminlar	53
Musurmanov E.	O‘zbek va xitoy mifologiyasida bosh totemistik tushunchalar talqini	57
Sobitova T.	“Orzigel” dostonidagi ma’naviy va lafziy san’atlar	60
Sultonova N. N.	Isajon Sulton nasri poetikasi	67
Mamatqulov M. R.	Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostonida tashbih san’ati	71
Вохидова Н. А.	Персизмы в русском языке	75
Yaxshiyeva Z. R.	Tetralogiyada poetik g’oya va pafos uyg’unligi	78
Атаева Г. М., Умарова О. С.	Репрезентация структурных особенностей междометных фразеологических единиц в английском языке	80
Taylakov U. K.	«Informatika va axborot texnologiyalari» fanidan elektron darsliklarni yaratish bosqichlari	83

PEDAGOGIKA / PEDAGOGICS

Taylakov U. K.	«Informatika va axborot texnologiyalari» fanidan elektron darsliklarni yaratish bosqichlari	83
-----------------------	---	----

Xasanova X. N.	Umumiy o‘rta talim maktablarida organik kimyoni o‘qitishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish usullari	86
Madatov I. Y.	Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish (blended learning texnologiyasi misolida)	91
Nurboboyev Sh. B.	Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda refleksiv yo’naltirilgan ta’lim muhitining ilmiy-metodik jihatlari	96
Ilxomov B. I.	Professional ta’lim muassasalarini boshqaruv xodimlarining raqamlashtirilgan iqtisodiy faoliyatdagi kompetentligi	99
Sharipov E. O., Shodihev S. Yu.	O‘qituvchining pedagogik texnikasi va innovatsion faoliyatining o‘quvchilar bilan muloqotidagi roli	103
Ibraymov A. Y.	Masofaviy o‘qitishning zamонавиј modellari	108
Egamov M. X.	Texnika oliy ta’lim muassasalarida sferik trigonometriya fanini fuzionizm g‘oyasi asosida o‘qitish usullari	112
Davronova G. M.	Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	115
Kipchakov B. B., Ismoilova F. I.	Badminton bo‘yicha sport tayyorgarligi bosqichlari va uning mazmuni	119
Yadgarova O. I.	Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari	123
Kadirov T. B.	Malaka oshirish ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish masalalari	127
Oqnazarov T. J.	Integratsiyalashgan axborot ta’lim muhitini yaratishning didaktik-texnologik shartlari	130
Mannabov J. T.	Masofaviy ta’limda o‘qituvchilarning kasbiy texnologik kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari	132
Axmedov F. Q., Utayev Z. M.	Sport mashg’ulotlari jarayonida o‘quvchilarga umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan g’oyalarni singdirishning pedagogik asoslari	137
Tojiyeva X. B.	Adabiyotda sharqona o‘qitish usullari	140
Azimov A.	Buyuk alomalarning yoshlari tarbiyasiga doir fikrlari	144

PSIXOLOGIYA / PSYCHOLOGY

Saidov A. I.	Yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari	148
Xalbayeva G. A.	Zamonaviy psixologiyada bolalarni mактаб ta’limiga tayyorgarligining psixologik muammolari	151
Isakova M. T.	Davlat boshqaruvi va shaxs ruhiy salomatligi	158
Toxirova M. U.	Ko’rishda nuqsoni bor shaxslarning xarakter xususiyatlariga psixologik tasnif	162
Урунов А. III.	Моделирование процесса профилактики девиантного поведения (социально-психологический аспект)	165
Eshmurodova Z. R.	Sharq va g’arb xalqlari tilida bola tug’ilishi bilan bog’liq marosim va urf-odatlar	169

Mualliflarga

UDK: 491.3

**MAHMUD QOSHG'ARIYNING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARI O‘RGANILISHI VA
UNGA BERILGAN BAHO**

Z. Xatamov, U. Sanaqulov
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada XI asrning buyuk mutafakkir olimi Mahmud Koshg'ariyning lingvistik me'rosi – “Devonu lug‘otit turk” asari va unda o‘z davridagi turkiy tillarning leksik, fonetik, grammatic sohalarini o‘rganishga doir fikr-mulohazalarining mohiyati, ahamiyati haqida va asosan fonetik bilimiga xos ilmiy-amaliy hamda nazariy qarashlari qisqacha tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: “ishbo”, “imola”, “ishmom”, “g‘unna”, “xashum”, “muhmad”, tovush, harf, fonema.

Изучение произведения Махмуда Кашигари “Девону лугатит турк” и её оценка

Аннотация. Статья посвящена изучению лингвистической наследии великого тюркского мыслителя Махмуда Кашигари и его книги “Девону лугатит турк” в XI веку. В этой книге написана теория о конструкции тюркского языка, а так же изучения лексикологии, фонетики, грамматики. Также в этой статье рассматривается научно-практические и теоретические знания Махмуда Кашигари о фонетике.

Ключевые слова: “ишбо”, “имола”, “ишмом”, “ғунна”, “хашум”, “муҳмад”, звук, буква, фонема .

The research and rating of the work “Devonu lug‘atit turk” by Mahmud Kashgari

Abstract. This article is devoted to book on linguistics “Divani lugatit turk” of great Turkic thinker Mahmud Kashgari in XI century. The theory about construction on Turkic language, and also studying its lexicology, phonetics and grammar. Also, scientific-practical and theoretical knowledge of Mahmoud Kashgariy on phonetics is investigated in this article.

Keywords: “ishbo”, “imola”, “ishmom”, “gunna”, “hashum”, “muhmad”, sound, letter, phoneme.

Mahmud Qoshg'ariy birgina “Devonu lug‘otit turk” asari bilan jahon tilshunosligi tsivilizatsiyasiga o‘zining munosib hissasini qo‘shtigan va turkiy xalqlar ma’naviy-madaniy merosining ming yillar avvalgi darajasini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qila olgan, turkiy lingvistika tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk qomusiy olim hisoblanadi.

Uning “Devonu lug‘otit turk” asarida XI asrda milodiy asr boshlarida yashagan turkiy qavmlar foydalangan til va unga xos badiiy, lug‘aviy birliklar qiyosiy metod asosida talqin etilgan. Boshqacha aytganda, bu asar leksikografik, ya’ni oddiy lug‘at emas, balki qadim-qadimdan O‘rta Osiyoda yashagan turkiy qavmlar tilida iste’molda bo‘lgan so‘zlarning ma’noviy va funksional-stilistik, fonetik, grammatic xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan lingvistik asar hamdir. Shunchaki, lingvistik asar emas, balki umumturkiy tilshunoslikda til nazariyasi va qiyosiy-tarixiy metodning yuzaga kelishiga ilk asos, ildiz

bo‘lgan ilmiy-amaliy manba ham hisoblanadi. Bu asarning mohiyatan ahamiyatli yana bir muhim tomoni borki, unda hozirgi turkiy xalqlarning o‘tmish tarixi, etnogenezi, etnologiyasi [shajarasi], qadimiy etnografiyasi [turmush tarzi, urf-odatlari, folklori] kabilari bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyatda ishonli muhim ma’lumotlar mavjud. Shu bois o‘ziga xos bu qomusiy asardan nafaqat lingvistika tarixida, balki adabiyotshunoslik folklorshunoslik, tarixshunoslik, geografiya-o‘lkashunoslik, etnografiya, etnologiya, va falsafa kabi juda ko‘p sohalar bo‘yicha o‘tmishda ham, hozir ham tadqiqotchilar o‘zlarini qiziqtirgan masalalar bo‘yicha samarali foydalanib kelishgan va kelmoqdalar.

Masalan, ushbu asarni tadqiq etgan o‘tmish olimlaridan biri Ali Amiri yquyidagilarni yozib qoldirgan edi: “Kitobni qo‘lga olishim bilan o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim. Bu kitob dunyoda qiyosi yo‘q, ham ma’lum bo‘lman bir turk qomusi va grammatikasi edi. Arab tili uchun Sibavayxiyning kitobi qanday muhim bo‘lsa, bu ham turk tili uchun shunday ahamiyatlidir. Hozirga qadar turk tilida buning kabi kitob yozilgani yo‘q. Bu kitobning haqiqiy bahosini aniqlamoqchi bo‘lsangiz, jahonning xazinalari bunga teng kelolmas”[2].

Xususan, ushbu qomus so‘nggi yangi davr olimlari tomonidan tadqiq etilib, uning ilmiy qiymati haqida ko‘plab fikrlar bayon etilgan. Masalan, bular orasida mashhur sharqshunos olim P.K.Juzening “Devonu lug‘otit turk” asari haqidagi quyidagi fikrlari xarakterlidir: “Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chuqruki, hatto bunday asar XIX asrda yozilganda ham, unga shon-sharaf bo‘lardi. Mahmud Qoshg‘ariyning devoni singari asar fan olamida keyingi asrlarda ham yaratilgan emas. Uning asari bamisoli “Turkiy qomus”dir”.

Bu asarga bo‘lgan munosabatning birinchi bosqichida tadqiqotchilar uni tarjima qilish bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Natijada uning o‘zbek, turk, ozarbayjon, qozoq, uyg‘ur, shuningdek, eron, ingliz, nemis, rus, xitoy tillaridagi tarjima variantlari yuzaga keldi. Bu borada ulkan xizmatlari bo‘lgan turkiyalik Besim Atalay, o‘zbekistonlik Solih Mutallibov, ozarbayjonlik Ramiz Esker, qozog‘istonlik Asqar Agaboev, uyg‘uristonlik Muhammad Fayziy va Ahmad Ziyo, eronlik Husayn Muhammadzoda Siddiq, rossiyalik turkolog S.E.Malov, angliyalik Robert Denkoff va Jizm Makkali, germaniyalik Karl Brokkelman va boshqalarning ishlarini qayd etish mumkin. Bu xayrli ishlar hamon davom etmoqda. Fan-teknika taraqqiyoti tufayli endilikda asarning elektron nuxsalari internet saydlaridan joy olgan. Ushbu asar oradan o‘n asr vaqt o‘tganligiga qaramasdan bugun dunyo ilm-u ma’rifat ahlining hamon diqqat-nazarida turibdi. “Devonu lug‘otit turk” asari jahon bo‘yicha, jumladan, O‘zbekistonda amalga oshirilgan ishlar haqida J.Xudoyberdievning “Mahmud Qoshg‘ariy hayoti va «Devonu lug‘otit turk» asarining o‘rganilishi” nomli ilmiy ommabob risolasida juda yaxshi ma’lumotlar berilgan [2].

“Devonu lug‘otit turk” asariga bo‘lgan munosabatning ikkinchi bosqichida uni ilmiy tadqiq etish bilan bog‘liq ishlar amalga oshirilgan. Bu borada olib borilgan va olib borilayotgan ishlar ko‘lamini dunyo miqyosida belgilash mumkin. Zero O‘zbekistonlik olim J.Xudoyberdiev xayrli bir ishga qo‘l urib, Mahmud Qoshg‘ariy va uning devoni tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar yuzasidan kuzatishlar olib borgan, uning natijasi o‘laroq «Maxmud Qoshgariy xayoti va «Devonu lugotit turk» asarining o‘rganilishi» asarini hamda “Mahmud Qoshg‘ariy hayoti va “Devonu lug‘otit turk” bo‘yicha yaratilgan asarlar ko‘rsatkichi” nomli muhim ilmiy ommabob risolasini chop qilgan. Xususan, “Mahmud Qoshg‘ariy hayoti va “Devonu lug‘otit turk” bo‘yicha yaratilgan asarlar ko‘rsatkichi” kitobida Mahmud Qoshg‘ariy faoliyati bilan bog‘liq 1800 ga yaqin yuzaga kelgan ishlar ro‘yxati keltirilgan. “Ko‘rsatkich”da keltirilgan ma’lumotlarda bo‘yicha quyidagicha statistik raqamlar havola etilgan: eng ko‘p amalga oshirilgan tadqiqotlar turk tilida 501 ta, rus tilida 393 ta, o‘zbek tilida 309 ta, ozarbayjon tilida 164 ta, turkman tiliba 147, ingliz tilida 126 tani tashkil etadi. Jumladan, 20 tadan 40 tagacha bo‘lgan ishlar; nemis [37], uyg‘ur [26], qozoq [22], xitoy [20] tillarida; 1 tadan 9 tagacha bo‘lgan tadqiqotlar qirg‘iz [9], tatar [5], fransuz [3], venger [3], yapon [3], boshqird [2], italyan [2], qoraqalpoq [2], tojik [2], ukrain [2], fors [1] tillarida chop etilgan. Bizningcha, bu ko‘rsatkich hali mukammal emas, chunki, birgina o‘zbek olimlarining barchasi bo‘yicha qilingan ishlar to‘liq aks etmagan. Balki horijiy olimlarning ishlar bo‘yicha ham shunday xulosaga kelish mumkin. Hozirgi paytda, har qaysi ilmiy dargohlarda yozilgan ilmiy ishlar va tadqiqotlari to‘liq ro‘yxatini hisobga olinsa Mahmud Qoshg‘ariy faoliyati bilan bog‘liq yuzaga kelgan ishlarning soni 2000 dan oshib ketadi, balki undanda ortar. Zero turkologiyada, jumladan, o‘zbek tilshunosligida har yili Mahmud Qoshg‘ariy faoliyati va “Devonu lug‘otit turk asari bo‘yicha o‘nlab tadqiqotlar, ilmiy maqolalar yozilmoqda. Bunday ishlarning amalga oshishi turk tilshunosligidan keyin, o‘zbek olimlarining ishi ikkinchi o‘rinda deyishimiz mumkin. Chunki rus tilida yozilgan ishlarning 60 ga yaqini o‘zbek tilshunoslari tomonidan amalga oshirilgan, buning ustiga O‘zbekistondagi chop etilgan ishlar ko‘rsatkichi mukammal hisobga olinmagani.

Hozirgi davrlarda Mahmud Qoshg‘ariy buyuk lingvist olim sifatida tilshunoslikning barcha sathlari bo‘yicha ishonchli ma’lumotlar bergenligi haqida va uning ilmiy xulosalari hamda nazariy fikrlarini ilmiy asosda turli hajmda ilmiy ishlar, maqolalar yozilgan va yozilmoqda. Birgina Samarqand shahridagi bilim

dargohlarida o'tgan asrning oxirlari va hozirgi davrlarda o'nlab maqolalar va malakali bitiruv [diplom] ishlari, magistirlik dissertatsiyalari yozildi. Masalan, keyingi uch-to'rt yil orasida ham Mahmud Qoshg'ariy hamda uning devoni bo'yicha malakaviy bitiruv ishi va 10 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etildi. Bu ishlar SamDU va SamDChTI ilmiy to'plamlarida, axbarot nomalarida ham chop etilgan. Har bir chop etilgan ilmiy ishlarda, anjumanlardagi ma'ruzalarda Mahmud Qoshg'ariyning ilmiy merosini talqini bo'yicha aytilgan fikr-mulohazalarda olimning til bilmidagi qarashlari qanchalik yoritilmasin, hamon bu borada o'rganilmagan qirralar mavjudligi seziladi. Jumladan, bugungi kunda biz Mahmud Qoshg'ariyning til bilmiga xos nazariy qarashlarini o'rganish hali juda muhim masala ekanligini ta'kidlamoqchimiz. Birgina uning fonetik olim sifatidagi nazariy qarashlarining o'zi to'liq tavsif asosida o'rganish lozim deb bilamiz. Bu masala hozircha maxsus tarzda tadqiq etilmagan.

Zero, Mahmud Qoshg'ariy, o'z davri darajasida eng avvalo, fonetika sohasida ham yuksak bilimga ega bo'lgan olim sifatida qimmatli nazariy fikrlarini bildira olgan. Eng ahamiyatlisi shundaki, olimning mazkur sohaga doir g'oyalari, nazariyalari, qarashlari hozirgi turkiyshunoslik va o'zbekshunoslik fonetikasida o'z qimmatini yo'qtoganicha yo'q. Bu masala quyidagilar bilan asoslanadi:

Birinchidan, Mahmud Qoshg'ariy turkiyshunoslikda ilk bor nutq tovushlarning fonemalik mezonini sezsa olgan va o'ziga xos fikrlari bilan belgilagan [“ishbo” – tovushlarning qattiq va yumshoqlik talaffuzi, “imola” - cho'ziq talaffuzi, “ishmom” yumshoq yoki ingichka talaffuzi, “g'unna” – ng[ŋ] kabi birikma tovushlar, “xashum” – burun, dumog’ tovushlar, “muhmad” – iste’moldan chiqqan tovushlar [so‘zlar] va h. [MQ. I, 45-50-bb.]. Olim fonema bilan variant orasidagi chegarani sezgan. Nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi holatini ko'rsatgan. Nutq tovushlarini nutq a'zolarining holatiga va harakatiga qarab guruhlashtirgan. Demak, olim fonema va harf munosabatini ham turkiyshunoslikda ma'lum darajada ilk bor belgilagan.

Ikkinchidan, til bilmi bilan shug'ullangan olimlar orfoepiya masalasi fonetikaning g'oyat muammoli nuqtasi deb bilganlar. Shuning uchun fonetika bilan shug'ullangan olimlarning aksariyati uni chetlab o'tmaydilar. Bu masalaga ham ular bevosita yoki bilvosita o'z munosabatini bildirib o'tganlar. Garchi Mahmud Qoshg'ariy ham o'z asarida yozuv masalasiga maxsus bo'lim ajratmagan bo'lsa-da, bu sohaga o'z munosabatini bildirgan. Eng e'tiborlisi, orfoepiya masalasidagi muammolarni orfoepiya bilan bog'lab sharhlaydiki, bunday usul orfoepiyadagi ayrim nazariy jihatlarni echishda manbaning yordami katta ekanligini ko'rindi. Ayni paytda, turkologiyada orfoepiya prinsiplari orfoepiya qonuniyatlaridan kelib chiqib belgilanganligini ta'kidlaydi.

Mahmud Qoshg'ariy turkiyshunoslikda ilk bor imlo talaffuzdagi tovushlarni ifodalashdan arab yozuvi asosidagi alifbo turkiy til uchun ojiz ekanini ochib berdi. Zero uning o'zi birinchi bo'lib yozuvdagi kamchilikni to'ldirish maqsadida ayrim harflarni belgiladi: “Turkiy tillar yozuvida qo'llangan harflar 18 ta bilan belgilangan. Holbuki, turkiy til nutq tovushini bu harflar to'liq aks ettirib bo'lmaydi, balki tilda qo'llaniladigan tovushlarni berish uchun yana ettita harf etishmaydi.... [qarang: MQ.I, 21, 47-48-bb.]

Uchinchidan, Mahmud Qoshg'ariy turkiyshunoslikda ilk bor tovushni maxsus kuzatdi, ularni ilmiy jihatdan o'rganadi. Tovushlarning kombinatsiya natijasidagi mavqelarini akustik va fiziologik holatlarini belgilaydi. Olim fonetikaga doir juda ko'p yangiliklar ochdi, bu sohani yangi-yangi qoidalar bilan boyitdi. Olim unlillarni belgilash, xususan, undoshlar va ularning jarangli va jarangsiz kabi farqini ajratar ekan, ulardagagi kenglik va torlik, cho'ziqlik va qisqalik holatlaridagi qonuniyatlarni ochadi. Tovushlardagi ana shu xususiyatlarni asos qilib, muallif turkiy tillardagi umumiylilik va ular orasidagi xususiylikni belgilaydi. Masalan, Mahmud Koshg'ariy turkiy so'zlarning unli tovushlarini tavsiflab shunday yozadi: «Unlilarni cho'ziq yoki qisqartirib talaffuz qilish so'zga zarar bermaydi» [MQ.I,385-b.]. Boshqa bir joyida yana ham aniqroq qilib yozadi: *yig 'āch* deyish ham mumkin, *yig 'ach* deyish ham mumkin. Bu variant [*yig 'ach*] to'rt tilda qo'llanilgan [MQ.III,34-bet]. Bundan seziladiki, cho'ziq unlilar o'sha davr urug'-qabila tillarida bir xil qo'llanilmagan, u ayrim urug'-qabila tillari [shevalari] da mavjud bo'lgan va ayrimlarida esa cho'ziq qo'llanmagan. Shumisi xarakterlik, turkiy tildagi birlamchi cho'ziqlik masalasi murakkab hodisadir. Olimlar taxminiga ko'ra juda qadimgi yozma yodgorliklari bizgacha etib kelmagan davrlarda [umumturkiy tilda] – turkiy so'zlarda cho'ziq va qisqa unlilar farqlangan. Lekin manbalarda bu masala haqida aniq bir fikr aytilmagan. To'g'ri, turkiy tilda cho'ziq va qisqa unlilarning farqlanishi, bo'yicha ba'zi fikrlar aytilgan, ammo ularning fonologik ahamiyati haqida qarama-qarshi ma'lumot mavjud. Bu masalada Mahmud Qoshg'ariyning yuqorida fikrlari bu masalaga ancha aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi. Biz Qoshg'ariyning fonetikaga doir fikrlariga batafsil to'xtalishga imkoniyatimiz chegeralangan.

To'rtinchidan, Mahmud Qoshg'ariy e'tiroficha, fonetik jarayon g'oyat ko'p holatlar bilan bog'liq. Shuning uchun uni izchil va to'g'ri talqin qilish ham unga katta imkoniyat yaratadi. Olim undan shu maqsadlarda foydalangan. Chunonchi, u fonetik jarayonlarning ko'p holatda so'zlar etimologiyasini aniqlashga yordam berishini ham qayd etadi. “Devonu lug'otit turk”da Mahmud Qoshg'ariy shu usul orqali juda ko'p so'zlarning etimologiyasini belgilaydi. Bu albatta, hozirgi umumturkologiya va o'zbek tilshunosligi

uchun so‘zlar etimologiyasini aniqlash, xususan, etimologik lug‘atlar tuzish yo‘lida g‘oyat ahamiyatlidir. Devondagi misollar milodgacha va milodiy VI asrlar tilini eslatadi: *arqadi-alqadi* [MK.I-tom, 28-bet], “*irra - izza – uyalish*” [MK.I-tom, 74-bet], *aznadi* [MK.I-tom, 234-bet] - *aynidi, kedin-keyin* [MK.I-tom, 230-bet] *azg ‘ir-ayg ‘ir* [MK.I-tom, 121-bet], *azri-ayri* [MK.I-tom, 146-bet], *azaklig‘- oyoqli* [MK.I-tom, 167-bet] kabi misollarda melodgacha va milodiy asr boshlarida mavjud bo‘lgan “*r > z; r > l, d > z, z > y*” va h. fonetik xususiyatlar kuzatiladi. Bunday ma’lumotlarni o‘sha davr qabila-urug‘ tillarini qiyoslanishida yanada aniq kuzatish mumkin: “*Yag‘mo, tuxsi, qipchoq, yabaqu, tatar, qayjumul va o‘g‘uzlar har vaqt “z”ni so‘zda “y”*” (yoga) aylantiradilar va hech mahal “*ð*” [dz] bilan so‘zlamaydilar. Chunonchi ulardan boshqalar *qayin* daraxtini *qadzüy* desalar, bu qabilalavr *qayin* deyilar.... chigillarda “*ð*” [dz] bilan aytildigan so‘zlar yag‘mo, tuchsi, o‘g‘uz va Chinga qadar cho‘zilgan erlarda yashovchi ba‘zi arg‘ularda “*y*” [yoy] bilan almashadi. Rumgacha bo‘lgan qipchoq va boshqa qabilalarda bu harf “*z*”ga aylantiriladi... xo‘tanliklar... ba‘zan “*z*” harfini “*I*” almashtiradilar [MK.I-tom, 68-bet].

Turkiy tillarda undoshlar juftligi, undosh tovushlarning juft holda qator kelishi yoki kelmasligi haqida turkologiya va o‘zbek tilshunosligida xilma-xil fikrlar mavjud. Ayrim olimlar undosh tovushlarning takrorlanib kelganligini tan olmasalar, ayrimlar uni cho‘ziq undoshlar deb ataganlar. Ba’zilar uni boshqa tillarning ta’siri sifatida ko‘rsatishgan. Mahmud Qoshg‘ariyning ushbu fonetik jarayon yuzasidan tahlili bu boradagi qarashlarga ham oydinlik kiritishi mumkin. Olimning qayd etishicha, tovushlardagi ikkilik turli maqsadda yuzaga keladi. Chunonchi, mubolag‘a, ta’kid, kuchaytiruv maqsadlari sabab bo‘lishi mumkin. Ba’zan bir tovushning ikkinchi tovushga singishi ham ushbu fonetik jarayonni yuzaga keltiradi. Muallif undoshlardagi juftlik tilda keyin yuzaga kelgan fonetik jarayon ekanligi haqida g‘oyasini olg‘a suran ekan, ularning so‘z turkumlari bo‘yicha ham turlicha ekanligini qayd etadi. Mahmud Qoshg‘ariy bu jarayonni qoidalashtirib, aslida bir harf ikki qayta takrorlangan so‘z turkiy tillarda sira yo‘qdir. U faqat oxirgi harfi “*r*” bo‘lgan fe’llardagina paydo bo‘ladi. Ismlarda esa bu holat juda ozdir, deydi.

Xullas, Mahmud Koshg‘arining nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki umumturkologiyada fonetikaga doir nazariy fikrlari haligacha mukammal o‘rganilgan emas. Yuqorida qayd etilgan qisqacha nazariy-tavsiyfif fikrlarni davom ettirish mumkin, albatta. Ammo buni birgina ma’ruza yoki maqolada batafsil talqin etib bo‘lmaydi.

Adabiyotlar

1. Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu lug‘otit turk”(S.Mutlibovning o‘zbek tilidagi tarjimasi va nashrining 1,2,3-tomlari). -T.: 1960-1963.
2. Xudoyberdiev J. Mahmud Qoshg‘ariy hayoti va «Devonu lug‘otit turk» asarining o‘rganilishi. – Toshkent, “Fan”, 2010, (-48 b.).
3. Xuloyberdiyev J. Mahmud Koshg‘ariy hayoti va “Devonu lug‘otit turk” bo‘yicha yaratilgan asarlar ko‘satkichi.- T.: “Akademnashr”, 2011 (-158 b.).

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodالangan bo'lishi kerak va unda umumiyl qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E-mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib
Texnik muharrir

X. Sh. Tashpulatov
A. I. Inatov

I.Sulaymonov
E.Arziqulov
O.Yusupova
A.R.Safarov

Muharrirlar:

- f.f.d., dotsent
- f.-m.f.n., dotsent
- fil.f.n., dotsent
- PhD., dotsent

Mas'ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev - k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.
X. S. Xaydarov - f.-m.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 29.08.2020 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 277. Adadi 30 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.